

YAKKABOG‘DARYO HAVZSI LANDSHATLARI VA GEOEKOLOGIK HOLATI

Nazarov M.G - Qarshi davlat universiteti dotsenti.

Rahimov Sh.X – Qarshi davlat universiteti magistranti. O‘zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan, Qashqadaryo viloyati Qashqadaryo havzasida joylashgan Yakkabog‘daryo havzasi landshaftlari va ularning geoekologik, ekologik va geografik vaziyat haqida bayon etilgan. Yakkabog‘daryo havzasi landshaftlar ekologiyasi, landshaftlar morfologiyasi landshaftlar tasnifi va ularni baholash yoritilgan

Tayanch so‘zlar: Yakkabog‘daryo, Tanxozdaryo havzasi landshaft, relyef plastikasi landshaft tasnifi geoekologiya landshaftlarni baholash landshaft geomorfologiyasi landshaftlarni ekologik baholash va yaxshilash, geoaxborot tizimi (GAT), raqamli xaritalash,

ЛАНДШАФТЫ И ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ БАССЕЙНА РЕКИ ЯККАБОГДАРЬО

Назаров М.Г. – доцент Каршинского государственного
университета.

Рахимов Ш.Х. – магистрант Каршинского государственного
университета. Узбекистан.

Аннотация. В данной статье описывается одна из актуальных сегодня проблем – ландшафты Яккабогдарьинской котловины, расположенной в Кашкадарьинской котловине Кашкадарьинской области, а также их геоэкологическое, эколого-географическое положение. Рассматриваются экология ландшафтов Яккабогдарьинской котловины, морфология ландшафтов, классификация ландшафтов и их оценка.

Ключевые слова: Яккабогдарьинская котловина, ландшафт бассейна Танхоздарьинской котловины, пластичность рельефа, классификация ландшафтов, геоэкология, оценка ландшафтов, ландшафтная геоморфология, экологическая оценка и

улучшение ландшафтов, географическая информационная система (ГИС), цифровое картографирование.

LANDSCAPES AND GEOECOLOGICAL CONDITION OF THE YAKKABOGDARYO RIVER BASIN

Nazarov M.G. - Associate Professor, Karshi State University.

Rakhimov Sh.Kh. - Master's student, Karshi State University.
Uzbekistan.

***Abstract.** This article describes one of the current issues today, the landscapes of the Yakkabagdarya basin, located in the Kashkadarya basin of the Kashkadarya region, and their geoecological, ecological and geographical situation. The ecology of the landscapes of the Yakkabagdarya basin, the morphology of the landscapes, the classification of landscapes and their assessment are covered.*

***Keywords:** Yakkabagdarya, Tankhozdarya basin landscape, relief plasticity, landscape classification, geoecology, landscape assessment, landscape geomorphology, ecological assessment and improvement of landscapes, geographic information system (GIS), digital mapping,*

Mavzuning dolzarbligi .Yakkabog‘daryo daryo havzasi landshaftlari ularning geoekologik holati yillar davomida o‘zgarib bormoqda ,Uning atrof-muhitga ta’sirini o‘rganish va yaxshilash uchun bir qancha ishlar qilinmoqda.Biroq vaziyat qanchalik darjada chuqur o‘rganilayotgani noma’lum.Shu boisdan ushbu maqola umumiy vaziyat haqida ma’lumot beradi.Qishloq xo’jaligi uchun katta ahamiyat kasb etgan Yakkabog‘daryo yillar davomida suvining sarfi antropogen maqsadlarda foydalanish oqibatida juda ko‘p miqdorda suv sarf bo‘ladi.Daryo suvi esa yillar davomida kamayib bormoqda oqibatda atrof muhiga va insolarda turli kasalliklar vujudaga kelmoqda.Bunga sabab suvning sifat yomonlashuvi va daryo atrofidagi mikroiklimning yo‘qolishi va o‘zgarishidir.

Kirish. Daryo havzasi landshaftlarining bugungi kundagi geokologik holati avvalgi yillardan faq qiladi. Bunga sabab aholi sonining ortishi tufayli oziq-ovqat mahsulotlari bilan tahminlab kelayotgan sug'oriladigan yerlar intensiv foydalanilayotganligi tufayli, ularda tuproq unumdorligining pasayishi, tuproq eroziyasi, sho'rlanish va boshqa salbiy ekologik jarayonlar kuchaymoqda. Bu esa

antropogen landshaftlar maydonining kengayishi, tabiiy landshaftlar maydonining kamayishidir. Natijada daryo havzasi landshaftlarining mahsuldorligi pasayib boradi. Daryo havzasi landshaftlari tabiiy maydonlari qisqarib antropogen landshaftlar ortishi kuzatiladi. Boshqacha aytganda daryo havzasi landshaftlari antropogen transformatsiyasi yuzaga keladi. Landshaftlarning suvni saqlash, infiltratsiya qilish, tozalash kabi funksiyalarining buzilishi oqibatida tuproq eroziyasining ortishi hamda daryo suvining ifloslanishi kabi landshaft ekologik vaziyatlar tarkib topadi. Landshaftlardagi geokologik vaziyatni yaxshilash uni saqlab qolish uchun dunyoda muntazam bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida belgilab berilgan muhim "maqsad" larning biri "Quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o'rmonlarni ratsional boshqarish, cho'llashinishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va biologik xilma-xillikning yo'qolishini oldini olish" vazifalarini yechishga qaratilgan. Mazkur vazifalar, sug'oriladigan va haydaladigan yerlarda, shu jumladan daryo havzalari landshaftlarida ham integral tadqiqotlar asosida ekologik vaziyatni optimallashtirishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Yakkabog'daryosi Qashqadaryo okrugi shimoli sharqida joylashgan Yakkabog' tumanidagi daryo. Daryo havzasi landshaftlari 2 ta tog' va tekislik landshatlari sinfiga kiradi.(1;2;3)

Tog' landashtlari sinfi Hisor tog' tizmasi tog' oldi hududlari balandligi 1500-2500 m balandlikda bo'lgan hududlarni o'z ichiga olib Hisor tog'

tizmasining shimoli-g'arbiy hamda janubi-g'arbiy qismidagi hududlarni o'z ichiga oladi. Bu hududlar landashti tog' landshaftlar sinfiga kirib adir past tog' va tog' oldi, o'rtacha tog'lar landshaft turiga, kuchli va kuchsiz parchalangan landashft bo'lib, avtomorf va yarim gidromorf landshaftlar guruhiga kiradi. Yakkabog' tumani janubi sharqiy qismlari landshatft bioiqlimiy ko'rsatkichlari bo'yicha o'rmon o'tloqi dasht landshaftlari, janubiy qismida esa ozroq maydon cho'l dasht va quruq-dasht landshaftlariga turiga kiradi. Tuproq landashft bo'yicha bu hududlar qong'ir tusli hamda och bo'z tusli tuproqlar yuqoriga chiqqan sayiniz bo'z turoqlar o'tloq dasht tuproq tiplariga almashadi. Tog'larda turli o't va siyrak archa o'simliklar tog' kserofitlari bilan qoplangan hudulardir. (9;3;6)

Tekislik landshaft sinfi. Tekislik landashft sinfiga ko'ra chol va cho'l dast landshaftlari turi bo'lib bu hududlar Yakkabog' tumani g'arbiy va janubi-g'arbiy qismlaridir. Qarshi cho'li janubiy qismlari balandligi 400m dan 1000m gacha bo'lgan hududlari landshafti avtomorf bo'z tuproqlar qoplangan. Cho'lga hos bo'lgan o'simliklar ksemorf shuvoq va efemereoid yarim butalardan iborat antropogen landshaftlardir. (6;7;8)

Landshaftlarning hozirgi geokologik holati. Yakkabog' daryo hazasi qishloq xojaliga katta ahamiyat kasb etadi, shu boisdan hozirgi ekologik holat biroz yomonlashgan. Daryo landshaftidagi ekologik holatga ko'ra Tanxozdaryo hamda Qizildaryo atroflari ekologik holat darjasiga ko'ra qoniqarli va motadil qoniqarli tipdan motadil keskin tipga tushgan. (9;4.5)


Yakkabog'daryo daryo havzalarining antropogen transformatsiya koeffitsientlarini nisbiy baholash 1-jadval

Daryo havzalari yillar	1990-2000 yillar	2000-2010 yillar	2010-2020 yillar
Landshaft birliklari	transformatsiya koeffitsientini bilan nisbiy baholash		
Gidrogen landshaftlar	Kuchsiz	O'rtacha	Kuchli
O'rmon-dasht landshaftlar	Kuchli	O'rtacha	Kuchsiz

Agrolandshaftlar	Kuchsiz	O`rtacha	Kuchli
Seletib landshaftlar	Kuchsiz	Kuchli	O`rtacha
O`simliksiz lyoss, qumloq, qoyalar	Kuchsiz	Kuchli	O`rtacha
Glatsial-nival landshaftlar	O`rtacha	O`rtacha	Kuchsiz
O`tloqi-dasht landshaftlar	O`rtacha	Kuchsiz	Kuchli

O`zbekiston milliy atlasini hamda statistik ma`lumotlarga asoslangan holda muallif tomonidan tuzildi

Landshaftlarning ekologik guruhlarini jihatdan ksemofr tipdan keng maydonlar antropogen tipga o`tgan. Bunga sabab aholi soni ortishi oziq-ovqat keskinlashuvi va sanoatning ulushi ortishi natijasida qurilish materiallari juda ko`p miqdorda qazib olishdir. Biroq landshaftlardagi tabiiylikning keskin kamayishi tabiatning aziyat chekishi kelajakda juda katta talofat olib keladi. Tekislik landshaftlarida esa avhol bunda yomon antropogen landshaftlar transformatsiyasi natijasida cho`l maydonlari keskin ortib sho`rlanish eol omillar natijasida yanada ortgan daryo o`zani esa keskin pasaygan natijada daryo yaqini landshaftlari barqarorlik yo`qolib relyef parchalanishi zichligi keskin ortgan. Natijada antropogen landshaftlar va tabiiy landshaftlar orasidagi deformatsiya kengaygan. Buni quyidagi diagrammada ko`rish mumkin. (9;1;3;4;5)



Xulosa va takliflar. Yakkabog'daryo daryo havzasi atrofidagi landshaftlar o'zining barqarorligini bir muncha yo'qotgan. Bunga sabab iqlim va atropogen omillar. Xususan tekislik landshaftlarini yaxshilash uchun yerni melioratsiya qilish hamda daryo suvlaridan oqilona foydalanish beton negizli kanallar qazish. derjnalari qazish kerak asosiy maqsad daryo suvi sarfini tejash hamda yer osti suvlari sathini kamaytirishdir. Cho'l va chala cho'l landshaftlari juda ta'sirchan bo'lib transformatsiyaga uchrash juda yuqori bo'lib mo'tadil turdan keskin holatga juda tez o'tadi. Shu boisdan havzada geologik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, raqamlashtirilgan monitoring tizimini yo'lga qo'yish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash hududning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilarga xulosa qilib Qashqadaryo daryosi suv resurslaridan oqilona foydalanishda tabiiy sharoitdan kelib chiqqan holda yondoshish lozim. Daryoning yirik irmoqlaridan hisoblangan Yakkabog'daryosida oqimning katta qismi yilning issiq davrida hosil bo'lishi xalq xo'jaligida muhim sanaladi. Yakkabog'daryosining mavjud bo'lgan suv resurslaridan juda ham samarali va oqilona foydalanish rejalarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Sanchez J.R., Kaufman G.J., Reavy K., Homsey A., “Chapter 1-Watersheds & landscapes” in the technical report for the Delawary estuary & basin. Partnership for the Delawary estuary. PDE report № 12-01. 2012. 14-47 pp
2. Ellis, Erle C.; Ramankutty, Navin. 2008. Putting people in the map: anthropogenic biomes of the world. *Frontiers in Ecology and the Environment* 6: 439-447.
3. Sabirova N.T. – Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining landshaftlar transformatsiyasiga ta‘sirini baholash va geoeologik vaziyatini optimallashtirish// diss, 2020.
4. Mirzamaxmudov O.T Shimoliy farg‘ona daryo havzalari landshaftlarining antropogen transformatsiyasi maqola "Экономика и социум" №10(125) 2024 www.iupr.ru
5. Mirzamaxmudov O.T., Farg‘ona vodiysi adir landshaftlarining antropogen transformatsiyasi va ularni kartalashtirish. g.f.d. avtoref.-Samarqand.: 2023
6. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. Toshkent.: 2016 85 -b
7. Камышев А.П. Анализ устойчивости природно-технических систем Северо-Западной Сибири. //Геоэкология. -М., 2000. №2. — С. 116-216
8. Жумаханов Ш.З., Неъматова М.А. Наманган агломерациясининг шаклланиши ва ҳудудий таркиби. // Т.: 2023. 86-91 б
9. O‘zbekiston Milliy Atlasi 1-Tom Toshkent 2020 122-124-214-216-220 betlar